

Bunyodkorlik loyihalari taqdimot qilindi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-fevral kuni Toshkent viloyatida amalga oshiriladigan bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Ulardan biri – Toshkent viloyatining Qibray tumanida, “Toshkent-Sharqiy” aerodromi yaqinida 155 gektarlik bog’ barpo etish loyihasi. Uni ishlab chiqishda dunyo megapolislaridagi mashhur parklarning landshafti, qulayliklari o’rganilgan. Bu bog’ faqat daraxtzor, buta va gullardan iborat o’ziga xos dendropark bo’lishi ko’zda tutilgan. Bu poytaxtimiz ekologiyasiga katta ta’sir ko’rsatadigan, aholi va mehmonlar sayr qiladigan “yashil hudud” bo’ladi.

Mazkur bog’ning yonida Olimpiya shaharchasi qurilishi rejalashtirilmoqda. Ma’lumki, Osiyo Olimpiya kengashining qaroriga ko’ra, 2025-yilda Yoshlar o’rtasidagi Osiyo o’yinlari Toshkentda o’tkaziladi. Unda qit’amizdagi 45 ta mamlakat yoshlari 20 ga yaqin sport turi bo’yicha bellashadi.

Aytish joizki, bunday nufuzli xalqaro musobaqa O’zbekiston tarixida birinchi marotaba o’tkaziladi. Davlatimiz rahbari bu mamlakatimizga ko’rsatilgan katta ishonch ekanini, ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik ko’rish kerakligini ta’kidlagan edi.

Shu maqsadda 160 gektar maydonda Olimpiya shaharchasi qurish bo’yicha loyiha ishlab chiqilgan. Chirchiq daryosining 5 kilometrdan ziyod qismida qirg’oqlarni tartibga keltirib, eshkak eshish bo’yicha musobaqalar uchun zarur sharoit yaratish mo’ljallangan. Uning bo’ylarida esa 270 gektarlik park etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Qibray tumanining ushbu hududida 2 ta universitet, shifoxona, ekspozitsiya, savdo va ko’ngilochar markaz binolari joylashtirilishi nazarda tutilmoqda.

Prezident loyihalarni sifat va qulaylik jihatidan takomillashtirish, inshootlarni qurishda jahondagi eng ilg’or tajribalarni qo’llash bo’yicha ko’rsatmalar berdi.



Manba